



Maxfiylik siyosati

Mazkur Maxfiylik siyosatida ("Siyosat") biz, ya'ni Qualcomm Incorporated va bizning filiallarimiz (birgalikda "biz", "bizga" yoki "bizning") shaxsiy ma'lumotlarni qanday yig'ish, foydalanish, qayta ishlash va uzatishimiz haqida ma'lumot beramiz. Qualcomm Incorporated va bizning filiallarimiz global tashkilot hisoblanib, biz o'zimiz boshqaradigan ma'lumotlarni dunyo bo'yicha korxonalariga (yuridik shaxslarga), biznes jarayonlari va axborot tizimlariga ulashamiz. Shu sababli, ushbu Siyosat uchun, bizga nisbatan qo'llaniladigan maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha ko'plab qonunlarni qamrab olish uchun "shaxsiy ma'lumotlar" atamasidan keng foydalanamiz; "shaxsiy ma'lumotlar" shaxsi aniq jismoniy shaxsga tegishli bo'lgan yoki jismoniy shaxsni identifikatsiya qilish uchun (alohida yoki boshqa oqilona foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumot bilan birgalikda) oqilona foydalanilishi mumkin bo'lgan axborotni bildiradi.

Ko'lam

Bu Siyosat biz mazkur hujjatda keltiradigan yoki unga havola qiladigan veb-saytlarimiz, mahsulotlarimiz, xizmatlarimiz, dasturiy ta'minotlarimiz yoki ilovalarimiz (birgalikda "Xizmatlar") uchun amal qiladi. Mazkur Siyosat faqatgina Xizmatlar orqali to'plangan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va boshqa xizmatlarning ma'lumotlar to'plami yoki ularga ishlov berilishini, jumladan, lekin cheklanmagan tarzda, ma'lumotlarni to'plash amaliyotlarini o'z ichiga olmaydi, chunki u xizmatlarning o'ziga tegishli bo'lgan alohida maxfiylik siyosatlari mavjud. Ba'zida turli so'rovnomalar yoxud maxsus veb-saytlarimizda, masalan, Ishga qabul qilish bo'yicha veb-sahifalarimizda biz ushbu Siyosatga ishora qilamiz; bunday holatlarda ushbu Siyosat muayyan bildirgi yoki rozilik so'rovida o'zgartirilgan holda (masalan, to'plangan ma'lumotlar turlariga yoki ularni yig'ish maqsadlariga ko'ra) qo'llaniladi.

Ma'lumotlar turlari va ularni to'plash usullari

Biz quyida tavsifi keltiriladigan vositalar orqali turli shaxsiy ma'lumotlarni to'playmiz. Biz to'playdigan ma'lumotlar bo'yicha sizda tanlash imkoni mavjud. Sizdan bizga ma'lumotlarni taqdim qilish so'ralganida, siz taqdim qilmasligingiz mumkin. Biroq ma'lumot berishdan bosh

tortsangiz, tegishli mahsulot yoki xizmatdan foydalanish imkoniyatingiz kamayishi yoki cheklanishi mumkin.

Siz taqdim qiladigan ma'lumot. Bizdan biror ma'lumot so'raganingizda, ro'yxatdan o'tganingizda, mahsulot yoki xizmatga buyurtma berganingizda, sizdan to'liq ismingiz, e-pochta(lari)ngiz, yashash manzil(lar)ingiz, telefon raqam(lar)ingiz va siz nomidan chiquvchi biznesga oid ma'lumotlarni so'raymiz yoki o'zingiz ixtiyoriy tarzda bu ma'lumotlarni jo'natishingiz mumkin. Pulli xizmatlar bilan bog'liq ravishda, biz to'lov ma'lumotlarini (masalan, kredit kartochkasi raqami va tegishli tasdiqlash axborotini), telefon raqamini, to'lov va yetkazib berish manzillarini ham to'playmiz.

Veb-saytlarimizdan biz avtomatik tarzda to'playdigan ma'lumotlar. Bizning saytlardan biriga tashrif buyurganingizda biz kompyuteringiz yoki mobil qurilmangizdan brauzeringiz turi, operatsion tizim, IP-manzili va siz saytga kirgan domen nomi kabi umumiy ma'lumotlarni va bizning saytimizga mobil qurilmangiz yordamida kiradigan bo'lsangiz, u qurilma turi haqidagi axborotni to'playmiz. Shu bilan birga, biz veb-saytlardan qanday foydalanayotganingiz, masalan, saytga tashrif buyurilgan sana vaqt, saytning siz tashrif buyurgan bo'limlari yoki sahifalari, saytni ko'zdan kechirish uchun siz sarflagan vaqt, saytni qayta ko'rishlaringiz soni va boshqa klik-strim axboroti kabilar haqida ma'lumot to'playmiz.

Cookie-fayllar. Veb-saytlarimiz yoki veb-ilovalarimizdan foydalanganligingiz haqidagi ma'lumotlarni to'plash uchun cookie-fayllar, veb-mayoqlar yoki shu kabi texnologiyalardan foydalanamiz. Cookie-fayl bu saytga kirganingizda kompyuteringiz yoki qurilmangizning qattiq diskida saqlanadigan kichik matnli fayldir. Biz cookie-fayllardan saytlarimiz va xizmatlarimizni boshqarish uchun foydalanamiz, jumladan: (1) sizni eslab qolish uchun, shunda siz saytga qaytib kirganingizda ayni ma'lumotni qayta kiritish shart bo'lmaydi, (2) sizga saytdagi moslashtirilgan kontent yoki takliflarni taqdim etish uchun; (3) sayt unumdorligini nazorat qilish, tadqiqotlar o'tkazish, kontent va xizmatlarimizni takomillashtirishga yordam berishda jamlanma statistikani rivojlantirish uchun hamda (4) saytlarimiz va xizmatlarimiz xavfsizligini ta'minlashga yordam berish uchun.

Shuningdek, biz veb-tahlil bo'yicha hamkorlar, reklama beruvchilar yoki reklama tarmoqlari kabi boshqa kompaniyalarga saytimizda o'z cookie-fayllarini yoki veb-mayoqlarni (shuningdek, 1x1 piksel o'lchamdagi GIF fayllar yoki amal teglari) o'rnatishlari yoki ularga kirishlariga ruxsat beramiz. Masalan, saytimizda bizning nomimizdan internet orqali reklama qilish yoki boshqa kompaniyalarni reklama qilishlari uchun uchinchi tomon reklama kompaniyalaridan

foydalanamiz. Mazkur uchinchi tomon reklama kompaniyalari o'z mijozlari, shu jumladan, biz uchun reklama samaradorligini o'lchash va takomillashtirish uchun cookie-fayllar va veb-mayoqlardan foydalanadi. Buning uchun, ushbu kompaniyalar ma'lum vaqt davomida saytimizga va boshqa veb-saytlarga tashriflaringiz haqidagi axborotdan foydalanadi. Bu axborot ko'rsatilgan reklama bannerining sanasi/vahti, ularning cookie-fayli tarkibiga kiruvchi unikal identifikator va qurilmangiz IP-manzili kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Sizni qiziqtirgan mahsulot va xizmatlar haqidagi reklamani sizga ko'proq ko'rsatish uchun mazkur ma'lumotlar reklamalarni personalizatsiya qilish uchun ham foydalanilishi mumkin. Bu amaliyot va personalizatsiya qilingan reklama berilishiga tanlovlaringiz haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishni xohlasangiz [ushbu obunani bekor qilish maqolasi](#) bilan tanishib chiqing.

Siz cookie-fayllardan voz kechishingiz mumkin, ammo bunday qilish orqali siz saytdagi ba'zi xususiyatlardan foydalana olmasligingiz yoki barcha takliflarimizdan to'liq foydalana olmasligingiz mumkin. Cookie-fayllar sozlamalarini qanday o'zgartirishni o'rganish uchun brauzeringizdagi "Help" ("Yordam") menyusini tekshiring. Batafsil ma'lumot uchun Cookie-fayllarga oid siyosatimiz bilan tanishib chiqing.

Dasturiy ta'minot va ilovalar: Qualcomm Incorporated kompaniyasining filiallari mobil qurilmalar uchun ularning samaradorligini oshirish, batareya quvvatini tejash, qurilma xavfsizligini yaxshilash yoki boshqa imtiyozlarni taklif qilishda yordam berishi mumkin bo'lgan ko'p turdagi dasturiy ta'minotlar va ilovalar ishlab chiqadilar. Mazkur dasturiy ilovalar orqali biz joylashuv ma'lumotlari, unikal identifikatorlar (masalan, chipset seriya raqami yoki xalqaro abonent ID raqami), qurilmada o'rnatilgan va/yoki ishlayotgan ilovalar haqida ma'lumotlar, mahsulot, uning modeli va simsiz aloqa operatori kabi konfiguratsiya ma'lumotlari, operatsion tizim va versiya ma'lumotlari, dasturiy ta'minotni yaratish ma'lumotlari va chipset unumdorligi, batareyadan foydalanish va termal axborot kabi qurilmaning unumdorligi haqidagi ma'lumotlarni to'plashimiz mumkin. [Batafsil ma'lumot uchun](#)

Uchinchi tomon manbalari: Shuningdek biz ma'lumot brokerlari, ijtimoiy tarmoqlar, boshqa hamkorlar yoki ommaviy manbalar kabi uchinchi tomon manbalaridan ham shaxsiy ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

Ma'lumotlarni to'plashdan maqsad va ulardan foydalanish

Biz siz foydalanadigan mahsulotlarni taqdim qilish, faoliyatimizni yuritish, shartnomaviy va qonuniy majburiyatlarimizni bajarish, tizimlarimiz va mijozlarimiz xavfsizligini himoya qilish

yoki boshqa qonuniy manfaatlarni bajarish uchun biz ruxsatingiz bilan va/yoki zaruratga qarab siz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotlarni to'playmiz va ularga ishlov beramiz. Bizning ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishdan maqsadimiz quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bizga yuborgan so'rovingiz, jumladan, ma'lumot olish uchun so'rovingizga yoki mahsulotga obuna bo'lish yoxud mahsulotni xarid qilish uchun yuborgan so'rovingizga javob berish uchun;
- Siz so'ragan Xizmat(lar)ni taqdim qilish, boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizligini ta'minlash uchun;
- Faoliyatimizni boshqarish va takomillashtirish, shu jumladan xizmatlarimiz va tizimlarimizni boshqarish, himoya qilish va takomillashtirish, yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish va boshqa ichki faoliyat maqsadlari uchun;
- Xizmatlarimiz foydalanuvchilarining nimani afzal ko'rishlarini yaxshiroq tushunish, Xizmatlarimizdan foydalanish bo'yicha jamlangan statistikani tuzish va veb-saytimiz hamda Xizmatlarimiz bo'yicha tajribangizni personalizatsiya qilishga yordam berish;
- Sizga texnologiyalarimiz, mahsulot yoki xizmatlar chiqarilishi, yangiliklar va boshqa aloqalar haqida ma'lumot berish; hamda
- Biz mazkur Siyosatda keltirgan yoki biz ma'lumotlarni yig'ish paytidagi boshqa har qanday turdagi foydalanish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun va amaldagi qonunchilik tomonidan ruxsat etilgan darajada biz turli manbalardan to'plagan turli xil ma'lumotlarni umumlashtirishimiz mumkin.

Ma'lumotlarni qayerda saqlaymiz va ularga ishlov beramiz

Biz ma'lumotlarni Amerika Qo'shma Shtatlarida hamda dunyo bo'ylab, jumladan, lekin cheklanmagan tarzda, Osiyo va Yevropa iqtisodiy hududi bo'ylab joylashgan serverlarda saqlaymiz va qayta ishlov beramiz. Biz mazkur Siyosatga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarni qayerda saqlash yoki ularga ishlov berishimizdan qat'i nazar, ularga qayta ishlov berishda bu harakatning mazkur Siyosatga mos tarzda va amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash uchun tegishli choralarni ko'ramiz.

Biz shaxsiy ma'lumotlarni Yevropa iqtisodiy hududidan boshqa mamlakatlarga uzatamiz va bu ma'lumotlarning ba'zilar uchun tegishli darajadagi himoya Yevropa Komissiyasi tomonidan yetarli darajada muhofazasiga ega emas deb topilgan. Biz bunday harakatni amalga

oshiradigan bo'lsak, mazkur uzatma uchun turli huquqiy mexanizmlardan (jumladan, roziligingiz yoki qonuniy shartnomalardan) foydalanamiz.

Shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish

Qualcomm (shu jumladan, uning filiallari) doirasida biz shaxsiy ma'lumotlaringizga kiramiz va ma'lumotlarni ushbu Siyosatda ko'rsatilgan maqsadlar uchun bizning nomimizdan bu ma'lumotlarga ishlov beruvchi uchinchi tomon sotuvchisi yoki xizmat ko'rsatuvchi provayderlariga ulashamiz. Shuningdek, biz biznes mijozlarimizning xodimlari va ishchilariga o'quv kurslari va boshqa xizmatlarni taklif qilishimiz mumkin. Bunday holatlarda biz mazkur o'quv kurslari va boshqa xizmatlarimizdan foydalanishga oid ma'lumotlarni muayyan biznes mijozlarimizga o'z faoliyatlarida qo'llashlari uchun berishimiz mumkin. Shuningdek, biz ma'lumotlaringizni qonun talablari asosida yoki biz yoki boshqalarning qonuniy huquqlarini himoya qilish yoki bajarishni ko'zlagan holda, masalan, biror cheklovlarisiz, huquqni muhofaza qilish organlari mansabdor shaxslari va sud ishi bilan bog'liq so'rovlarga asosan, tegishli organlarga berishimiz mumkin. Biz ma'lumotlaringizni faoliyatimiz qisman yoki to'liq tarzda istiqbolda yoki joriy tarzda sotish, birlashtirish, o'tkazish yoki boshqa shaklda qayta tashkil etish bilan bog'liq ravishda ulashishimiz yoki uzatishimiz mumkin. Va nihoyat, biz shaxsiy ma'lumotlaringizni bizga ruxsat bergan joylaringizga ham berishimi mumkin.

Tanlovlaringiz

Obuna bo'lish/Obunani bekor qilish. Ba'zi holatlarda, masalan, e-pochta orqali marketing amalga oshirilganda, biz ma'lumotlarni to'plash, ulardan foydalanish yoki ulashishning ba'zi turlari uchun obuna bo'lish yoki unga obunani bekor qilish taklifini beramiz. Bunday hollarda sizning tanlovingizni hurmat qilamiz.

Shaxsiy ma'lumotlar subyekti huquqlari Ayrim mamlakatlar yoki shtatlardagi qonunlar shaxsiy ma'lumotlaringiz borasida, ularga kirish, to'g'rilash, o'chirish, cheklashni talab qilish yoki boshqa huquqlarni taqdim etiladi. [Ushbu huquqlardan foydalanish uchun mana bu yerni bosing.](#)

Do Not Track (Kuzatilmasin). Biz hozirda veb-brauzerlar tomonidan jo'natilgan "Do Not Track" ("DNT") (Kuzatilmasin) signallariga javob bermaymiz. DNT signallarining qanday talqin qilinishi va ularni qabul qiluvchi veb-saytlar va uchinchi tomonlar qanday harakatlarni amalga oshirishi kerakligi haqida yagona standart qabul qilinmagan. Biroq ma'lumotlar to'plash va ulardan

foydalanishni nazorat qilishning turli vositalaridan, jumladan, brauzeringiz sozlamalaridagi cookie-fayllar parametrlari va yuqoridagi Cookie-fayllar bo'limida keltirilgan shaxsga moslangan reklama qilish parametrlaridan foydalanishingiz mumkin.

Saqlash

Hisobingiz faol holatda bo'lganda yoki sizga xizmatlarni taqdim qilishda zarur bo'lganda, shaxsiy ma'lumotlaringizni saqlaymiz. Shaxsiy ma'lumotlar o'zi to'plangan maqsadiga binoan faoliyatimiz uchun zarur bo'lmay qolsa, ularni oqilona vaqt ichida o'chirib tashlaymiz. Shunga qaramay biz o'z qonuniy majburiyatlarimizga muvofiq tarzda, nizolarni hal qilish va kelishuvlarimizni bajarish uchun, zarurat tug'ilganda, shaxsiy ma'lumotlarni saqlaymiz va ulardan foydalanamiz.

Xavfsizlik

Internet orqali uzatmalar aslo 100% xavfsiz yoki xatosiz bo'lmaydi. Biroq, ma'lumotlaringizni yo'qotish, oshkor qilish, o'zgartirish, yo'q qilish, ulardan noto'g'ri foydalanish va ularga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun oqilona choralar ko'ramiz. Siz parolingiz va foydalanuvchi ID hisobingizni himoya qilishni va agar siz parolingiz yoki Xizmatlarimizdan biri uchun qo'llaydigan foydalanuvchi ID hisobingiz xavf ostida qolganiga sizda biror shubha uyg'onsa, quyidagi ro'yxatda keltirilgan shartnoma usullaridan foydalangan holda bizga xabar berishni o'z zimmangizga olasiz. Parolingiz va foydalanuvchi ID hisobingizdan foydalangan holda Xizmatlarimizdan har qanday turdagi ruxsatsiz foydalanish uchun javobgarlik faqat o'z zimmangizdadir.

Bolalarning maxfiyligi

Xizmatlarimiz kattalarga mo'ljallangan. Biz amaldagi qonunchilikda belgilanganidek, bolalardan ularning shaxsini oshkor qiladigan ma'lumotlarni atayin yoki ongli tarzda to'plamaymiz va biz bolalardan shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etmasliklarini so'raymiz.

Tuzatishlar

Biz istalgan paytda ushbu Siyosat bo'limlarini o'zgartirish, almashtirish, qo'shish yoki o'chirish huquqini o'zimizda saqlab qolamiz, biroq mazkur Siyosatning so'nggi yangilangan sanasi ko'rsatilgan holda, o'zgarishlar amalga oshirilganligi haqida sizga xabar beramiz. Agar biz bu

Siyosatni jiddiy ravishda o'zgartirsak, Sizga bu haqda kamida o'ttiz kun oldin tegishli onlayn xabarnoma taqdim etamiz va/yoki qonun talablari asosida Sizning aniq ifodalangan roziligingizni olamiz. Veb-saytlarimizga tashrif buyurishingiz yoki Xizmatlarimizdan foydalanishingiz bilan Siz mazkur Siyosatning joriy versiyasini qabul qilgan hisoblanasiz. Ushbu Siyosatga kiritiladigan har qanday o'zgarishlardan voqif bo'lib turish uchun foydalanuvchilarga vaqti-vaqti bilan u bilan tanishib turishlarini tavsiya qilamiz.

Biz bilan bog'lanish

Biz bilan bog'lanish uchun privacy@qualcomm.com e-pochtas manziliga elektron xat yozing yoki quyidagi manzil bo'yicha Qualcomm Incorporated kompaniyasiga maktub yo'llang: Privacy Counsel, 5775 Morehouse Drive, San Diego, CA 92121.

Kuchga kirish sanasi: 2019 yil 30 aprel

2019 Qualcomm Technologies, Inc. va/yoki uning sho'ba kompaniyalari.